



**Alisher**

---

**Navoiy**

(1441-1501)



# E'TIROF



- Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

**Islom Karimov**



- **Alisher Navoiy**  
**1441-yilning**  
**9-fevralida**  
**Hirotda shahrida**  
**tavallud topgan.**

- **Alisherning maktabdosh do‘sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Samarqanddan Hirotga chaqirib oladi va muhrdor qilib tayinlaydi.**
- **1472-yildan vazirlik martabasiga ko‘tariladi, 1487-88-yillarda Astrobodda hokim bo‘lib ishlaydi.**






Buyuk ijodkor  
**1501-yil 3-yanvar**  
kuni vafot etdi.



**Alisher Navoiyning qabri Hirotda.**  
**Hirotda esa Afgʻonistonda joylashgan.**



# TURLI YO`NALISHDAGI ASARLARI

- O'tmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya'ni arab bo'lmagan mamlakatlar tarixi»);
- «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan.
- Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi»);
- Tazkirachilikka oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi.
- Lug'atshunoslikka oid «Sab'atu abhur» («Yetti dengiz») nomli kitob yozdi.
- Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (o'zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tunganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.



- Sharqda oʻtgan mashhur shayxlar, soʻfiylar hayoti haqida maʼlumot beruvchi **«Nasoyim ul-muhabbat»** («Muhabbat shabadalari») asarini yozib tugatdi.
- Soʻng umr boʻyi xayolini band etgan **«Lison ut-tayr»**ni qogʻozga tushirdi.
- Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari — xatlarini toʻplab **«Munshaot»** («Xatlar») tuzdi.
- 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini oʻzida ifodalagan **«Mahbub ul-qulub»** («Koʻngillarning sevgani») asari maydonga keldi.



# DEVONLARI

- *Navoiyning 8 ta devoni bo'lib, 7 tasini o'zi tuzgan:*
- **1. Ilk Devon-zamondoshlari tuzgan.**
- **2. “Badoe’ ul-bidoya”-1472-76-yillarda Navoiy tuzgan ilk devon.**
- **3. “Navodir un-nihoya” .**
- **4. “Xazoyin ul-maoniy”- “Chor devon” – 1492-98-yillar.**
- **5. “Devoni Foniy” (8-devon) – 1491-1498-yillar.**

# “ILK DEVON” HAQIDA

- **Shoirning muxlislari 1465-66-yillarda uning she'rlarini to'plab, devon tuzadilar va bu devon o'z davrida “xattotlar sultoni” nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko`chiriladi.**
- **Bu devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan.**
- **391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod va 1 muxammas, jami 434 she'rdan tashkil topgan.**



# **"Badoye'u-l-bidoya" devoni haqida**

- **"Badiiylikning boshlanishi" - Alisher Navoiyning o'zi tomonidan tuzilgan birinchi rasmiy devon bo'lib, shoir bu devonini do'sti, podshoh Husayn Boyqaroning topshirig'iga ko'ra tuzgan edi.**
- **11 janrga oid jami 1046 ta she'r mavjud:**
- **g'azal – 777 ta, mustazod – 3 ta , muxammas – 5 ta, musaddas – 2 ta, tarji'band – 3 ta, qit'a – 46 ta, ruboiy – 85 ta, lug'z – 10 ta, muammo – 52 ta, tuyuq – 10 ta, fard – 53 ta.**

# **“Navodiru-n-nihoya“ devoni haqida**

- **"Behad nodirliklar" - shoirning ikkinchi rasmiy devoni**
- **Devonning nisbatan to'liq nusxasi Abdujamil kotib va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, unda 862 she'r bor.**
- **XX asrning 80-yillar oxirida adabiyotshunos olimi Suyima G'aniyeva ushbu devonning Navoiy muhri bosilgan notugal surat – nusxasini Eron Islom Respublikasidan olib keldi. Bu nusxa “Navoiy dastxati” nomi bilan 1991-yilda e'lon qilindi.**

# **"Xazoyinu-l-maoniy" devoni**

- Ushbu devon 4 devonni o`zida jo qilgan:
  - "G'aroyibu-s-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari")
  - "Navodiru-sh-shabob" ("Yigitlik nodirliklari")
  - "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh go'zalliklari")
  - "Favoyidu-l-kibar" ("Keksalik foydalari")
- Har bir devoniga 650 tadan g'azal kiritadi, shunga muvofiq boshqa she'riy janrlarga ham joy ajratadi.



# “Devoni Foni” haqida

- Navoiyning forscha she'rlari jamlangan to'plam.
- Unda:  
552 g'azal, 1 musaddas, 64 qit'a, 72 ruboiy, 1 tarkibband-marsiya, 16 ta'rix, 266 muammo, 10 qasida, 9 lug'z kabi janrlardan tashkil topgan she'rlar bor.
- Devondagi she'riy merosning umumiy miqdori 12 ming misradan ortiqdir.



*Navoiy  
g`azallaridan  
namunalar*

# «KELMADI» g`azali



Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,  
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo‘lida intizor,  
Keldi jon og‘zimg‘a-yu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi...

\*

- Ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida.
- Taqte’si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - ) .
- Radifiga o‘zbekcha so‘z («kelmadi») ishlatilgan va qofiyasidagi sakkiz («gulro‘ - uyqu – badxo‘ - qorong‘u - kulgu - su(v) - o‘tru - qayg‘u») so‘zdan oltitasi - o‘zbekcha, ikkitasi («gulro‘» va «badxo‘») - tojikcha.



# «QILG‘IL» G‘AZALI



**Qaro ko‘zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg‘il,  
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.**

**Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il...**

\*

- Sakkiz baytli bu g‘azal asrlar osha el orasida mashhur bo‘lib kelyapti.
- Radifi sof turkiy (o‘zbekcha) so‘z.
- Qofiyasiga shoir arabiy («fan», «vatan», «rasan», «kafan»), forsiy («ko‘hkan», «shikan», «anjuman») kalimalarga ohangdosh o‘zbekcha so‘z («tikan») ham topadi.
- G‘azalning boshidan oxirigacha har baytda kutilmagan timsol, ifoda va tasvir ishlatiladi.





## «BO‘LDUM SANGA» g`azali

Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga,  
Ne baloliq kun edikim, oshno bo‘ldum sanga:

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,  
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo‘ldum sanga...

\*

- Ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida.
- Taqte’si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - ) .

# NAVOIYNING MASHHUR QIT'ALARI

- **KAMOL KASBIGA DALOLATU NUQSONIDIN IZHORI MALOMAT**

**Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.**

**Jahondin notamom o'tmak biaynih  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.**

\*

- “G‘aroyib us-sig‘ar”ning 10-qit‘asi.
- Qit‘ada shoir kishilarni o‘zini har taraflama o‘stirishga undaydi. Hatto, bu umrning bosh mazmuni dajasidagi masala qilib qo‘yilgan. Alisher Navoiy hammomga kirib, nopok chiqish qanchalar mantiqsiz bo‘lsa, dunyoga kelib, kamolga yetmay o‘tish ham shunchalar bema‘nilik ekanini ochiq-oydin aytgan-qo‘ygan.

## **FALOKATDIN AYOQ‘IG‘A KAFSH BO‘LMAG‘ANGA CHUN KAFSH UCHUN AYOQ‘I BOR SHUKR VOJIBDUR**

**Ulki, iflosdin ayog‘inda  
Kafsh yo‘li azmi chog‘i yo‘qtur oning,**

**Shukr qildik boqib birav sori, –  
Ki yururg‘a ayog‘i yo‘qtur oning.**

**\***

- **“Badoye‘ ul-vasat”ning 41-qit‘asi.**
- **Bu qit‘a zamirida har qanday kishi o‘z ahvolidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin, degan oqilona o‘git yashirin. Mingni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil, degan xalq maqoli ham aynan shu g‘oyani ilgari suradi.**



Topshiriq. Tegishli raqamlarni jadvalga joylang.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlar haqidagi ma’lumotlarni to`g`ri topa olasizmi?

1 Kuhulot ayyomi

2 “O`rta yosh yangiliklari”

3 “Qarilik foydalari”

4 “Bolalik g`aroyibotlari”

5 Fusulning qishi

6 650 ta g`azal

35 yoshdan – 45 yoshgacha

7

8

7-8 yoshdan – 20 yoshgacha

9 Tufulot avoni

10

“Yigitlik nodirliklari”

11

Shabob zamoni

20 yoshdan – 35 yoshgacha

12

13

45 yoshdan – 60 yoshgacha




“G`aroyib us-sig`ar”

4

“Navodir ush-shabob”

“Badoye` ul-vasat”

“Favoyid ul-kibar”



# Topshiriq. Quyidagi g`azallarning vazni hamda taqte`larini yozing.

+			
✿	<i>“Qilg`il”</i>	vazni	
		taqte`si	
✿	<i>“Kelmadi”</i>	vazni	
		taqte`si	
✿	<i>“Jong`a chun dermen ...”</i>	vazni	
		taqte`si	
✿	<i>“Yo`q”</i>	vazni	
		taqte`si	
✿	<i>“Bo`ldim sanga”</i>	vazni	
		taqte`si	
✿	<i>“Bo`l”</i>	vazni	
		taqte`si	

# Bilimingizni sinang!

- 1. Alisher Navoiyning haykali tepasiga uning qaysi misralari yozib qo'yilgan?
- 2. Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azali qaysi vaznda yozilgan?
- 3. "Begona bayt" qanday tushuncha?
- 4. "Qaro ko'zim..."deb boshlanuvchi g'azalda qofiyani yuzaga keltirgan so'zlar?
- 5. "Mardumlig"so'zining ma'nosi?
- 6. Alisher Navoiyning "Deyin" radifli g'azali necha baytdan iborat va qanday san'at qo'llangan?
- 7. Tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik "ko'p va xo'p" asarlar yozmagan deb takidlagan kim?
- 8. "Muqarrabi shohiy" ya'ni shohning eng yaqin kishisi martabasi kimga kim tomonidan berilgan?



**E'TIBORINGIZDAN  
XURSANDMIZ!**